AQSH va O’zbekiston: ilmiy hamkorlik yo’lidagi qadamlar

Amerika Qo‘shma Shtatlarining Toshkentdagi elchixonasi tomonidan o‘tkazilayotgan AQSHning Janubiy va Markaziy Osiyo davlatlaridagi elchixonalari xodimlari uchun atrof-muhit, fan, texnologiyalar va sog‘liqni saqlash sohalariga bag‘ishlangan mintaqaviy konferensiya ishtirokchilari joriy yilning 15-mart kuni O‘zR FA Materialshunoslik institutiga “Katta Quyosh Qurilmasi” noyob ilmiy obyektiga tashrif buyurishdi.

Uchrashuvda Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Sirojiddin Mirzayev, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari Shahlo Turdiqulova ishtirok etishdi.

Materialshunoslik instituti direktori Odilxo’ja Parpiyev materialshunoslik sohasidagi erishilgan natijalar, vodorod energiyasi, kam karbonli texnologiyalar va yangi materiallar sintezi bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar to‘g‘risida taqdimot o‘tkazdi.

Mehmonlar, Katta Quyosh Qurilmasining texnologik imkoniyatlari, yashil vodorod olish texnologiyalari, keramik nanofaol qo‘shimchali plenka, mujassamlashgan quyosh nurlaishida monokristal va boshqa materiallar sintezi jarayoni bilan tanishdilar.

Tanishuvdan so‘ng ilmiy-texnikaviy hamkorlik istiqbollari to‘g‘risida munozaralar o‘tkazildi.

Materialshunoslik instituti AQSHning Qayta tiklanadigan energiya milliy laboratoriyasi (NRL) avtomatlashgan quyoshni kuzatuv tizimini takomillashtirish, Sandia National Laboratoriyes kompaniyasi bilan ilmiy-texnikaviy hamkorlik o‘rnatish, AQSH universitetlarida yosh olimlar uchun ilmiy stajirovkalar o‘tkazishga ko‘maklashish masalalarini ko‘tardi.

AQSH delegatsiyasi Milliy ilm-fan jamg‘armasi (National Science Foundation) hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, qo‘shma loyihalar tanlovini tashkil etish, AQSHda faoliyat yuritayotgan o‘zbek olimlari salohiyatidan foydalanishni yo‘lga qo‘yishni taklif qildilar.

Radio waves
Micro-wave
Infrared
Ultra-violet
X-Rays
Gamma Rays
Visible Light